

## KOLORIT IJODKORNING VA XALQNING MILLIY QIRRALARINI OCHIB BERGUVCHI OMILDIR

Suvanov Husniddin Norqulovich

Termiz davlat universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti,

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi.

Tel:+998977868805 E-mail: [hsuvanov@tersu.uz](mailto:hsuvanov@tersu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1401923>

**Annotatsiya.** Milliy kolorit badiiy asarda tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik va vatanparvarlik sifatida aks etib turadi. Kolorit badiiy asarda xalqning milliy qiyofasini chizib beradi. Badiiy asarning namunali bo‘lgan milliy xususiyatlari har qanday kitobxonni o‘ziga jalg qiladi. Milliy rangba-ranglik jo asarlar kitobxonga ma’naviy, estetik, madaniy va ruhiy tushunchalarini rivojlantiradi. Milliy-tarixiy xarakteri bilan kitobxonga ma’qul kelishi maqolamizda batafsil yoritilgan. Bugungi kunda yosh o‘zbek nasrida ham milliy koloritni o‘zida ifodalayotgan asarlar juda ko‘p. Yoshlar ijodida o‘z ifodasini topishi keltirilgan.

**Kalit so‘z:** kolorit, milliy, tarixiylik, umuninsoniylik, nutq.

## COLOR IS A FACTOR THAT OPENS THE NATIONAL EDGES OF THE CREATOR AND THE PEOPLE

**Abstract.** National color is reflected in the artistic work as historicity, nationalism, universality and patriotism. Color draws the national image of the people in the artistic work. The exemplary national characteristics of the work of art will attract any reader. Nationally colorful works develop the reader’s spiritual, aesthetic, cultural and spiritual understanding. Our article describes in detail why it will appeal to the reader with its national-historical character. Today, there are a lot of works that express the national color in young Uzbek prose. It is expressed in the creativity of young people.

**Key words:** color, national, historicity, humanity, speech.

## ЦВЕТ – ФАКТОР, ОТКРЫВАЮЩИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ГРАНИ ТВОРЦА И НАРОДА

**Аннотация.** Национальный колорит отражается в художественном произведении как историчность, национализм, универсальность и патриотизм. Цвет рисует национальный образ народа в художественном произведении. Образцовый национальный характер произведения искусства привлечет любого читателя. Национально-колоритные произведения развивают духовное, эстетическое, культурно-духовное понимание читателя. В нашей статье подробно описано, почему она понравится читателю своим национально-историческим характером. Сегодня в молодой узбекской прозе немало

произведений, выражающих национальный колорит. Это выражается в творчестве молодежи.

**Ключевые слова:** цвет кожи, национальный, историчность, человечность, речь.

Adabiyot odamlarning tafakkuriy boyligini yuzaga chiqaruvchi shuningdek ichki hissiy kechinmalarni turfa xil ko‘rinishlarda ifodalovchi ne’matdir. Epik turda ham, lirik turda ham adabiyot insonlarga xizmat qiladi. Adabiyot insonning tarixiy voqeligini va zamonaviy shaklini namoyon qiladi. Adabiyot insonning bir necha asrlardan buyon insonlarni sehrli og‘ushiga olmoqda. O‘zbek adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyoti va bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyoti kabi tushunchalar bilan shakllanib kelmoqda.

Tarixiy manbalar va milliy ruh singdirilgan asar millatning koloritga xos qiyofasini yaqqol chizib beradi. Zamonaviy xarakterga ega asarlar esa milliy kolorit tasvirlangan asardan ancha-muncha farq qiladi. Milliy ruh va milliy kolorit ifodalangan asarlar xalq va kitobxon ongiga tez yetadi. Milliy qiyofa bilan chizilgan asar xar qanday kitobxonga qaysidir ma’noda ijobjiy ta’sirini o’tkazadi. Albatta, namunali xususiyatlari har qanday kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Milliy rangbaranglik jo asarlar kitobxonga ma’naviy, estetik, madaniy va ruhiy tushunchalarini rivojlantiradi.

Bunday badiiy asar milliy-tarixiy xarakteri bilan kitobxonga ma’qul keladi. Bugungi kunda yosh o‘zbek nasrida ham milliy koloritni o‘zida ifodalayotgan asarlar juda ko‘p. “Eshmonbek”, “Tashvishi yo‘q odamlar”, “Sunbulaning so‘nggi oqshomi” va “Kakku ovozi” kabi asarlarni misol qilishimiz mumkin. Albatta, milliy kolorit badiiy qiymatni orttiradi. Asarda tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik va vatanparvarlik g‘oyalar aks etib turadi.

Yosh ijodkorlarining asarlarida urf-odat, an’analalar va qadriyatlarning aks ettirilishi yaxshigina tus olmoqda. Asarning mohiyatini ochib olishida kitobxon har bir obraz va detalga e’tibor berishi shart. Badiiy asar kontekstlashuvi real va oddiy bo‘lsa asarni o‘qib maroq oluvchi kitobxonlar ko‘p bo‘ladi. A.Suyun, N.Chori, S.Tursun, Bibi Robia’ Saidovalar asarlarida xalqonalikni maromiga yetkazib kelmoqda.

Milliy koloriti har bir millatning zohiriyl va botiniy ko‘rinishi, ruhiy holati ifodalanadi.

Yana shuni aytish kerakki, badiiy asarda koloritning nutqiy xususiyatga xos bo‘lgan realiyalar, dialektizmlar va frazeologik birliklar o‘rin olganligi asar milliyligini orttiradi. Adabiy asarga milliy-tarixiy koloritning singib ketishi asarning etnogenetik jihatini namoyon qiladi. Yana shuni aytish kerakki, millatimiz mentalitetiga xos milliy koloritga to‘g‘ri keladigan umummilliy xususiyatlardan foydalanishi asar sifatini yaxshilaydi.

Asarni milliy ruhda yozishi oddiygina millatga xos urf-odat, kiyinish madaniyati, nutqiy madaniyati kabi bir qancha umumiylar xususiyatlarning ko‘rinishida. Milliy kolorit asarning tarixiy mohiyatini belgilovchi asosiy omildir. Milliy koloritlar aks etgan asarlarda millatning umuminsoniy qiyofasi ifodalaydi.

Kolorit «badiiy asarning alohida xususiyati bo‘lib, qahramonning nutqiy xususiyatlari, ularda ma’lum bir shevaga oid muhit yoki biron bir tildan olingan so‘z va iboralar mavjudligi sababli o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi milliy ko‘rinishdir. Shuningdek milliy tili, geografik hududiga mos ko‘rinishlar va boshqalar aks etadi. Asar xalq hayotidan olib tasvirlasa asar mazmunga boy bo‘ladi, koloritga xos ko‘rinish ham shuncha yorqin namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarning shakl va mazmun o‘zaro birligi, shuningdek aks ettirilgan xalq nutqi va hayoti bilan bog‘liq. Tarixiy hamda milliy koloritning asl mohiyatini ochishda ijodkor quyidagi omillarni asar mazmuniga singdirib yuborish kerak:

- a) marosimlar;
- b) milliy liboslar;
- d) dialektizmlar
- e) madaniy meroslari;
- f) millatga xos oziq-ovqatlar;
- g) joy nomlari va tabiat tasviri

Bu jihatlar asarda koloritning ifodalashida uchun muhim vositadir. Asar sifatli oshiradi.

Kolorit xalqning milliy qirralarini ochib beruvchi omildir. O‘sha omillarni yuzaga chiqaruvchi esa badiiy ijodkorlardir.

## REFERENCES

1. [Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir](#)
2. HN Suvanov - Science and Education, 2023
3. [Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи \(2\)](#)
4. ["ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI](#)
5. S Husniddin - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022
6. [Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи \(3\)](#)
7. [MILLIY MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT BADIY ASARDA NAMOYON BO‘LISHI](#)
8. H Suvanov - NRJ, 2024
9. [Цитируется: 4 Похожие статьи](#)

10. Husniddin, Suvanov. "" ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYJ JURNALI* (2022): 126-131. Farogat, Nurmuradova, and Buriyev Jamshid. "THE TRAGEDY OF FREEDOM." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.
11. [NURILLO CHORINING BADIY ASARLARIDA MILLIY KOLORITGA XOS KO'RINISHLAR NUTQIY JIHATDAN IFODALANISHI](#)
12. SH Norqulovich - International conference on multidisciplinary science, 2023
13. [Цитируется: 16 Похожие статьи](#)
14. [NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN](#)
15. H Suvanov - Modern Science and Research, 2024
16. [Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи \(3\)](#)
17. HUSNIDDIN SUVANOV CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education Страницы 50-53
18. Jamshid, B. R. (2022). YOZUVCHI ERKIN AZAMNING OGZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(1), 169-174.
19. Jamshid, B. R. (2022). YOZUVCHI ERKIN AZAMNING OGZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(1), 169-174.